PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

CHO‘LPON SHE’RIYATIDA KOGNITIV METAFORA VA UNING O`QITISH METODLARI

Ro‘ziqulova Sevinch Abror qizi
ToshDO‘TA universiteti 4-bosqich talabasi

ruziqulovasevinch04@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada kognitiv metafora nazariyasi va uning Cho‘lpon she’riyatida namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi. Metaforaning faqat badiiy ifoda emas, balki inson tafakkurida mavhum tushunchalarni konkret obrazlar orqali anglash vositasi ekani yoritiladi. Cho‘lpon ijodidagi metaforik obrazlar ruhiy holat, ijtimoiy muhit va ma’naviy kurashni ifodalashda qanday xizmat qilishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, ushbu yondashuvni o‘qitish jarayonida qo‘llash bo‘yicha ayrim metodik tavsiyalar ham keltiriladi.
KALIT SO‘ZLAR: Kognitiv metafora, metaforik obraz, Cho‘lpon she’riyati, konseptual metafora, mavhum tushunchalar, tafakkur jarayoni, til va ong, badiiy ifoda, ijtimoiy mazmun, o‘qitish metodikasi.

ANNOTATION: This article analyzes the theory of cognitive metaphor and its manifestation in Cho‘lpon’s poetry. It explains that metaphor is not only a stylistic device but also a cognitive mechanism that helps the human mind understand abstract concepts through concrete images. The study shows how metaphorical images in Cho‘lpon’s works express psychological states, social conditions, and spiritual struggle. It also includes some methodological suggestions for applying this approach in teaching practice.
KEYWORDS: Cognitive metaphor, metaphorical image, Cho‘lpon’s poetry, conceptual metaphor, abstract concepts, thinking process, language and mind, artistic expression, social meaning, teaching methodology.

Kognitiv metafora nazariyasiga ko‘ra, inson tafakkuri mavhum tushunchalarni bevosita emas, balki konkret va tajribaviy hodisalar orqali anglaydi. J. Lakoff va M. Johnson tomonidan asoslangan ushbu yondashuvga muvofiq, metafora faqat til va uslubiy vosita bo‘lib qolmay, balki inson ongida fikrlash jarayonini tashkil etuvchi muhim mexanizm hisoblanadi.[1] Romantizmga moyil faylasuflar esa, aksincha, metaforani fikr ifodalashninggina emas, balki tafakkurning o‘zining ham yagona usuli deb bilganlar. Masalan, nemis faylasufi F.Nitsshe, umuman, bilishning mohiyatan metaforik ekanligini ta’kidlaidi.”[2] Shu bois “Hayot — bu yo‘l” kabi ifodalar oddiy badiiy tasvir emas, balki insonning hayotni bosqichma-bosqich harakat, yo‘nalish va maqsad sari intilish sifatida idrok etish tizimini ifodalaydi. An’anaviy metafora asosan til birliklari darajasida namoyon bo‘lsa, kognitiv metafora ongda mavjud bo‘lib, insonning dunyoni.tushunish.usulini.belgilaydi.

Cho‘lpon she’riyatida uchraydigan metaforik obrazlar ham aynan shu nuqtai nazardan talqin qilinadi. Undagi obrazlar insonning ichki ruhiy kechinmalari, ijtimoiy zulm va ma’naviy kurash kabi murakkab va mavhum tushunchalarni aniq va ko‘rgazmali tasvirlar orqali ifodalaydi. Natijada o‘quvchi uchun murakkab mazmunni anglash osonlashadi, chunki abstrakt g‘oyalar konkret obrazlar vositasida jonlantiriladi. Masalan, “ko‘lanka” obrazi dushman yoki yog‘iy ma’nosini ifodalasa,

[1] Lakoff J., Johnson M. (2004). *Metaphors We Live By*, 256-bet.

[2] Маҳмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора/ Тил тилсими тадқиқи. –Тошкент, 2017. – Б. 117.

“yig‘i” baxtsizlik va g‘am-hasrat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. “Qamchi” esa qullik va zo‘ravonlik ramzi bo‘lib, mustamlakachilik esa azob-uqubat va zulm tushunchalarini ifodalaydi. Shu tariqa kognitiv metafora abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali anglash imkonini berib, inson tafakkurining muhim kognitiv mexanizmlaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Menda endi qayg‘ular yo‘q,
Men bahorlar kabi shanman.
Kechalarning o‘limiga
Qahqahalar solgan manman![3]

Ushbu satrda **bahor** kognitiv metafora sifatida **yorqin kelajak, umid va baxt**ni ifodalaydi. Shoir bahor timsoli orqali ichki erkinlik va ruhiy ko‘tarinkilikni tasvirlaydi, kechalar va qahqahalar esa hayotdagi ziddiyat va vaqt o‘tishini ko‘rsatadi. Shu tarzda metafora insonning ruhiy holati va kelajak umidini estetik va tushunarli tarzda aks ettiradi. Cho‘lpon she’riyatida metaforik obrazlar inson ruhiy holati, ijtimoiy vaziyat va ma’naviy kurashni aks ettiruvchi murakkab konseptual tizimni tashkil etadi. Ular kognitiv metafora sifatida ishlatiladi, ya’ni abstrakt tushunchalarni aniq, vizual va konkret ob’ektlar orqali tushuntirishga xizmat qiladi. Masalan: **olov** umid va ichki motivatsiyani, **qamchi** qullik va baxtsizlikni, **ko‘lanka** dushmanlik va xavfni ramziy qiladi. Shu bilan birga, **yo‘l**, **daryo**, **bahor** kabi obrazlar insonning hayot yo‘li, vaqtning uzluksizligi va kelajakdagi umidini ifodalaydi.

Haqorat dilni og‘ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?

Yuqoridagi parchada tubanlik so‘ziga e’tibor beradigan bo‘lsak, inson ongi tafakkurida yuqori muvaffaqiyat va omad, yaxshilik ma’nosi anglanadi. Quyi, past, tubanlik so‘zlarida esa aksincha yovuzlik va yomonlik tushuniladi. Bu yerda yurtning boshiga tushgan og‘ir kulfatni badiiy uslubda juda chiroyli yoritib berilmoqda.
Sarg‘aygan yaproq,
Bo‘yanib tuproq

O‘la boshladi, o‘la boshladi...
Yo‘q... o‘lim yo‘qdir!

Ushbu she’rda adib fasllarni qalamga olgan va unda qish fasli bilan o‘limni yonma yon ta’riflayapti. Fasllar orqali shoir inson umriga ishora qilmoqda, natijada metafora vujudga kelayapti. Bu o‘zbek adabiyotida eng ko‘p tarqalgan o‘xshatish hisoblanadi. O‘zbek xalqida ham shunday iboralar bor, umrning bahori va umrning qishi deyilganda insonning umri, uning yoshligi nafqironligi nazarda tutiladi. Qish fasli deganda esa inson ongiga birinchi o‘rinda keksalik va o‘lim keladi.
Bo‘rilardan omon kutmak
Tentaklarning ishidir ul.
Har mone’ni hatlab o‘tmak —
Turmushda eng to‘g‘ri bir yo‘l!

Navbatdagi she’riy parchada esa bo‘ri so‘zi ko‘p ma’nolarga ishora qiladi. Asosan bu so‘z dushman, yog‘iy ma’nosida ishlatilmoqda. U turli xalqlarda xalq xil tushunchalarni anglatadi. Bo‘ri-kuch, qudrat ramzi sifatida ham keladi. Lekin, Cho‘lpon she’riyatida bo‘ri ko‘p holatda dushman

[3] Xurshid Davron kutubxonasi. Cho‘lpon. Elektron manba: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/cholpon.html

tushunchasini ifodalab keladi.
Har qorong‘i, qo‘rqinch tunnning betida
Shifo istab kelmasin der, qo‘noqlar.

Yuqoridagi she’riy parchada va shoirning deyarli hamma she’rlarida qorongu degan so‘zni alohida bir urg‘u bilan bir xil tushunchani ifodalaydi. Shoirning yshab o‘tgan davri va uning hayot yo‘lini o‘rganar ekanmiz, anchayin qiyin va xatarli zamonda yashaganini anglab yetamiz. Shu sababli ham, qorongulik butun xalq va shoirlar ongida, tafakkurida qiyinchilik va insoniyatning qora kunlarini bildiradi.

Nima uchun ko‘zlaringda tutashguvchi olov yo‘q?
Nima uchun tunlaringda bo‘rilarning qorni to‘q?

Cho‘lpon she’riyatida uchqun, olov, to‘lqin kabi so‘zlar bu umid va kuch ma’nosida ishlatilmoqda Shoir nega sening ko‘zlaringda olov yo‘q, ya’ni ertangi kunga bo‘lgan umid va shodlik yo‘q deb so‘roqlamoqda. Tun esa yuqorida aytilgandek qorong‘ulik, kecha va tun xalqning boshiga tushgan og‘ir kulfatlarni anglatadi. Qorni to‘q bo‘rilar esa xalqning qonini ichib, uni talayotgan g‘animlar, dushmanlardir. Bunday o‘xshatishlar, metaforalar faqatgina she`riy parchalarda, badiiy adabiyotlarda emas, balki butun o‘zbek xalqining tafakkurida shunday aks etadi.

Ey, har turli qulliklarni sig‘dirmagan hur o‘lka,
Nega sening bo‘g‘izingni bo‘g‘ib turar ko‘lanka?

Kichik she’riy parchada: qullik-mustamlakalik, ko‘lanka; soya-dushman, xoin do‘st; bog‘moq-xatar solmoq. Qul so‘ziga e’tibor beradigan bo‘lsak, bu yerda bir davlatning boshqa biriga mustamlaka bo‘lishini bildirsa, ko‘lanka, soya shoirning boshqa she’rlarida ham juda faol ishlatiladi. O‘zbek she’riyatida ham bu so‘z xoin do‘st va dushman ma’nosida juda ham faol qo‘llanadi. Bog‘zidan bo‘gmoq, soya solmoq so‘zlari millatning yurtning boshiga kulfat ma’nosida ham keng qo‘llaniladi. Hozirgi holatda ham shunday ma’noda ishlatilgan.

Qizil va pok qoning islarini sochgach,
Kuchsiz ko‘yi yurishimni tezladim

O‘zbek xalqida qon tushunchasi ijobiy ma’noda, millat va xalq or-nomusi ma’nosida va urug‘ millat tushunchalarini ifodalaydi.

Yolg‘iz menmi ko‘klam chog‘i yig‘lagan?
Yolg‘iz menmi har umidda aldangan?
Yolg‘iz menmi ko‘kragimni tig‘lagan?
Yolg‘iz menmi sevinch bilan bo‘lmagan?
Ey ko‘klamning ko‘z tortg‘uvchi kelini,
Nima uchun yig‘latasan bir meni? …

[4]Ko‘klam chogì birikmasi yuqorida aytilgandek, ijodkor ko‘p she’rlarida inson umri fasllarga o‘shatiladi. U o‘zining yoshligi osonlik bilan o‘tmaganini va u qiyinchiliklarga to‘la ekanligiga ishora qilayapti. Butun bir xalq tafakkurida, ongida yoshlik –bu inson umrining bahoridir.

Xalq dengizdir,
Xalq to‘lqindir,
Xalq kuchdir,
Xalq isyondir,
Xalq olovdir, xalq o‘chdir…
Xalq qo‘zg‘alsa, kuch yo‘qdirkim, to‘xtatsin,
Quvvat yo‘qkim, xalq istagin yo‘q etsin.

[4] Xurshid Davron kutubxonasi. Cho‘lpon. Elektron manba: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/cholpon.html (murojaat sanasi: 23.04.2026)

Xalq isyoni saltanatni yo‘q qildi,
Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi…

Bu parchada “xalq dengiz”, “xalq to‘lqin”, “xalq olov” kabi ifodalar kognitiv metaforalarga misol bo‘ladi, ya’ni mavhum tushunchalar (xalq kuchi va irodasi) tabiat hodisalari orqali anglatilyapti. Bunday metaforalar fikrni faqat bezamaydi, balki “xalq” tushunchasini kuch, harakat va beqaror energiya sifatida ongimizda tasavvur qilishga yordam beradi. Natijada xalqning siyosiy va ijtimoiy qudrati oddiy tushuncha emas, balki tabiiy, to‘xtatib bo‘lmaydigan kuch sifatida idrok etiladi.
Ushbu she’riy parchalar orqali shoir badiiy tafakkurning eng muhim vositalaridan biri bo‘lgan metaforadan keng va samarali foydalanganini ko‘rish mumkin. Fasllar, tabiat hodisalari, hayvonlar va ranglar orqali inson umrining turli holatlari, xalqning ruhiyati hamda jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar chuqur ma’noda ifodalangan. Xususan, qish va o‘lim, bahor va yoshlik kabi qarama-qarshi obrazlar inson hayotining tabiiy qonuniyatlarini badiiy shaklda ochib beradi. Shuningdek, “bo‘ri”, “qorong‘ulik”, “olov”, “ko‘lanka” kabi obrazlar orqali dushmanlik, zulm, umid va xavf kabi tushunchalar ramziy ma’noda ifodalangan. Bu esa she’riyatda kognitiv metaforalarning kuchli ishlatilishini ko‘rsatadi: mavhum g‘oyalar aniq tasvirlar orqali o‘quvchi ongida jonlanadi va chuqurroq qabul qilinadi.

Ayniqsa, “xalq dengizdir”, “xalq to‘lqindir” kabi ifodalar xalqning beqiyos kuchi va birligi tabiatning to‘xtatib bo‘lmaydigan hodisalari bilan qiyoslanib, uning ijtimoiy qudratini yanada yorqinroq ochib beradi. Bu metaforalar orqali xalq faqat oddiy tushuncha emas, balki harakat, kuch va isyon ramzi sifatida gavdalanadi.

Umuman olganda, ushbu she’riy parchalar o‘zbek adabiyotida metaforik tafakkur naqadar chuqur ildiz otganini ko‘rsatadi. Shoirlar til vositasida inson hayoti, jamiyat va tarixiy jarayonlarni badiiy obrazlar orqali ifodalab, o‘quvchiga nafaqat estetik zavq, balki chuqur falsafiy mazmun ham yetkazadilar.

Cho‘lpon metaforalarining o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat poetik ifoda emas, balki inson tafakkuri va idrokidagi konseptual tizimlarni aks ettiradi. Metaforik obrazlar orqali shoir ichki ruhiy ziddiyat, baxtsizlik, umidsizlik va ichki kurashlarni vizual va estetik tarzda o‘quvchiga yetkazadi. Shu tariqa, Cho‘lpon asarlarida kognitiv chuqurlik va metaforik boylik yaratiladi, bu esa o‘quvchiga inson ruhiy va ijtimoiy tajribalarini tushunish imkonini beradi. Umuman olganda, Cho‘lpon she’riyatidagi kognitiv metaforalar – xalq tafakkuri, madaniyat va shaxsiy tajriba uyg‘unligini namoyon etuvchi vositalar bo‘lib, ular yordamida mavhum tushunchalar aniq va tushunarli shaklda ifodalanadi. Cho‘lpon she’riyatida metaforik tafakkur inson ruhiy holati, ijtimoiy vaziyat va ma’naviy kurashlarni ifodalashning asosiy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Metaforik obrazlar kognitiv nuqtai nazardan ishlatiladi: ular abstrakt tushunchalarni konkret, vizual ob’ektlar orqali idrok qilishga yordam beradi. Masalan, **olov** umid va ichki motivatsiyani, **qamchi** qullik va azob-uqubatni, **ko‘lanka** dushmanlik va xavfni ramziy qiladi. Shu bilan birga, **yo‘l**, **daryo**, **bahor** kabi obrazlar hayot yo‘li, vaqtning uzluksizligi va kelajakdagi umidni aks ettiradi.

Kognitiv metafora shoirga nafaqat estetik ifoda, balki inson tafakkuri va madaniy konseptlarni shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Cho‘lponning poetikasida metaforik tafakkur orqali o‘quvchi ruhiy ziddiyat, ichki kurash va ijtimoiy adolatsizlikni vizual va tushunarli tarzda idrok qiladi. Shu tariqa, metaforik tafakkur shoir poetikasining markaziy mexanizmi sifatida, kognitiv chuqurlik va metaforik boylikni yaratadi, o‘quvchiga inson tajribasi va madaniy kodlarni anglash imkonini beradi. Ushbu satrda “beshik” obrazi kognitiv metafora sifatida qo‘llanib, vatan va uning asrab-avaylanishi lozim bo‘lgan qadriyatlarini ifodalaydi. “Yeri oltun” hamda “tog‘lari kon” kabi iboralar esa mamlakatning tabiiy boyliklari va milliy ne’matlarining ramziy ifodasini beradi. Natijada metafora orqali vatan sevgisi, uning boyligi va qadri inson ruhiy olami bilan uzviy bog‘liq holda

estetik hamda ravshan tarzda ifodalanadi. Cho‘lpon she’riyati inson ruhiyati, tabiat manzaralari va milliy qadriyatlarni chuqur badiiy ifodalashi bilan ajralib turadi. Uning she’rlarida tabiat hodisalari, fasllar va tabiiy tasvirlar kognitiv metafora vazifasini bajarib, insonning ichki kechinmalari, ruhiy tushkunligi, iztiroblari hamda umidlari bilan bog‘lanadi. Masalan, “uzun qish” obrazi ayriliq va zulmatni anglatadigan ramz sifatida talqin qilinsa, “bahor” esa yorug‘ kelajak, yangilanish va baxt timsoli sifatida qo‘llanadi. Shu yo‘l bilan Cho‘lpon o‘z she’riyatida inson ruhiyati bilan tabiat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni estetik hamda ilmiy.jihatdan.ifodalaydi.

Kognitiv metafora nazariyasi tilni faqat badiiy ifoda vositasi sifatida emas, balki konseptual tafakkurning muhim shakli sifatida ham talqin qiladi. Ushbu yondashuv inson ongida kechadigan fikrlash jarayonlari til orqali qanday namoyon bo‘lishini tushuntirishga xizmat qiladi. She’riyatda metafora abstrakt tushunchalarni aniq, obrazli va hissiy shaklda ifodalash imkonini beruvchi samarali vosita bo‘lib, badiiy matnning mazmuniy qatlamlarini boyitadi va lirik qahramonning ichki kechinmalarini nozik tarzda aks ettiradi. O‘zbek she’riyati, ayniqsa XX asr lirikasida uchraydigan metaforik konstruksiyalar poetik tafakkurning murakkabligini namoyon etadi. Bu jarayonda milliy badiiy an’analar yangi ma’no qatlamlari bilan uyg‘unlashib, boy poetik ifoda tizimini yaratadi. Kognitiv yondashuv esa bunday metaforalarning chuqur konseptual asoslarini aniqlashga yordam berib, til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani ilmiy.jihatdan.izohlash.imkonini.beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, she’riy matnda uchraydigan metaforalar nafaqat tasviriylikni kuchaytiradi, balki muallif dunyoqarashining psixologik va falsafiy jihatlarini ham ochib beradi. Shu sababli kognitiv metafora nazariyasi badiiy nutqning ichki ma’no qatlamlarini anglashda samarali metod hisoblanadi va she’riyatning konseptual asoslarini tadqiq etishda keng ilmiy imkoniyatlar yaratadi. Kognitiv metafora nazariyasini ishlab chiqqan amerikalik olimlar J. Lakoff va M. Jonsonning ta’kidlashicha, konseptual metafora oddiygina stilistik usul emas, balki inson tafakkuri va fikrlash jarayonining muhim bir qismidir[51]. Ya’ni metafora faqat nutqni bezash uchun xizmat qilmaydi, balki insonning dunyoni qanday anglashini ham belgilab beradi.

Shu asosda aytish mumkinki, metafora tilning qo‘shimcha vositasi emas. U insonning hayot davomida to‘plagan tajribasi, dunyoqarashi va tafakkuri natijasida shakllanadigan muhim hodisadir. Demak, metafora inson ongining mahsuli bo‘lib, til bilan uzviy bog‘liqdir. Shu ma’noda, “til o‘z mohiyatiga ko‘ra metaforadir” degan fikr bejiz emas. 3.2 Cho‘lpon **she’riyatidagi metaforalarni ta’lim jarayonida**

[5] Lakoff J., Johnson M. (2004). *Metaphors We Live By*, 256-bet.

ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212



1-raqamli metod so‘z g‘ildiragi deb nomalanadi, unda o‘quvchilar g‘ildirakning o‘rtasidagi so‘zning ma’nosini chuqur tahlil qiladi. Bu ularga lingvistik ma’nolarini chuqur o‘rganishga yordam beradi. Masalan, daryo so‘zini qaysi so‘z turkumiga tegishli ekanligini, kognitiv ma’nosini aniqlaydi, qanday uslubiy xoslanganligini izohlab yozadi. Misollar orqali ifodalab gap tuzadi, bu har bir so‘zning ma’nosini tahlil qilish orqali 7-11 sinf o‘quvchilarida ham lingvistik bilimlarni shakllantiradi, ham tanqidiy fikrlab, ijodkorlikka undaydi.

Bu metod davomida o‘quvchilar berilgan so‘z bilan bog‘liq boshqa tushunchalarni ham aniqlashga harakat qiladilar. Masalan, so‘zning sinonim va antonimlarini topish, u bilan bog‘liq tasviriy ifodalar yoki iboralarni keltirish orqali o‘z fikrlarini kengaytiradilar. Shu orqali o‘quvchilarning lug‘at boyligi ortadi, nutqining aniqligi va ifodaliligi rivojlanadi. Bundan tashqari, o‘quvchilar so‘z asosida gaplar tuzib, uni matn ichida qo‘llashni ham o‘rganadilar. Mazkur metodning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Har bir o‘quvchi berilgan so‘z haqida o‘z qarashini bildiradi, uni boshqa tushunchalar bilan bog‘laydi va shu orqali yangi g‘oyalar yuzaga keladi. Bu esa dars jarayonini yanada faol va qiziqarli qiladi. “So‘z g‘ildiragi” deb nomlanuvchi metod o‘quvchilarning til birliklarini chuqur va tizimli o‘rganishiga xizmat qiluvchi samarali usullardan biri hisoblanadi. Mazkur metodda o‘quvchilar g‘ildirak markazida berilgan so‘zning ma’nosini har tomonlama tahlil qiladi, ya’ni uning leksik-semantik xususiyatlari, grammatik mansubligi, uslubiy jihatlari hamda kognitiv mazmunini aniqlashga harakat qiladi. Masalan, “daryo” so‘zi misolida o‘quvchi uning ot turkumiga mansubligini belgilaydi, bevosita va ko‘chma ma’nolarini izohlaydi, nutqdagi uslubiy qo‘llanishini tahlil qiladi hamda turli kontekstlarda qo‘llab gaplar tuzadi. Ilmiy nuqtai nazardan, ushbu metod til birliklarini kompleks yondashuv asosida o‘rganishga imkon beradi. Ya’ni so‘z faqat alohida birlik sifatida emas, balki semantik, grammatik va pragmatik jihatlarning o‘zaro uyg‘unligida talqin etiladi. Bu esa o‘quvchilarda lingvistik tafakkurning shakllanishiga, so‘z ma’nolarini chuqur anglashiga hamda nutqiy kompetensiyaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Psixologik jihatdan esa bu metod o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtiradi. Xususan, tahlil jarayonida tafakkur operatsiyalari (tahlil, taqqoslash, umumlashtirish) keng qo‘llanadi, xotira va diqqat barqarorlashadi, obrazli va mantiqiy fikrlash uyg‘un rivojlanadi. Shuningdek, o‘quvchilar mustaqil fikr yuritishga, dalillashga va ijodiy yondashuv asosida misollar keltirishga o‘rganadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, “so‘z g‘ildiragi” metodi ayniqsa 7–11-sinf o‘quvchilari uchun samarali bo‘lib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda abstrakt va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Metodning interaktivligi o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi, ularning qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, “so‘z g‘ildiragi” metodi nafaqat lingvistik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki

o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, nutqiy salohiyatini oshirish va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.









Ushbu topshiriqda o‘quvchilarga 4 ta rasm hamda 3 ta mavhum tushuncha taqdim etiladi. O‘quvchilarning vazifasi berilgan rasmlar va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlab, ular asosida kognitiv metaforalarni topish va yozishdan iborat bo‘ladi. Bu jarayonda o‘quvchilar tasviriy obrazlar orqali mavhum tushunchalarning qanday ifodalanishini tushunishga harakat qiladilar. Masalan, rasmda quyosh tasviri berilgan bo‘lsa, u **umid, quvonch yoki baxt** kabi mavhum tushunchalarni ifodalashi mumkin. Yoki qorong‘u tun rasmi **g‘am, tashvish yoki umidsizlik**ni anglatishi mumkin. Shunday qilib, o‘quvchilar rasmda aks etgan obrazni mavhum tushuncha bilan bog‘lab, kognitiv metafora shaklida izohlab yozadilar. Mazkur topshiriq o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, ularning badiiy fikrlashini rivojlantiradi hamda til birliklarini obrazli tarzda tushunish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar mavhum tushunchalarni aniq obrazlar orqali ifodalashni o‘rganadilar. Bu esa ularning nutq boyligini oshiradi, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va kognitiv tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu topshiriq o‘quvchilarga bir

nechta muhim ko‘nikmalarni beradi. Avvalo, ularning **tasavvur va obrazli fikrlash qobiliyatini** rivojlantiradi. O‘quvchilar oddiy rasm yoki obraz ortida yashiringan ma’noni topishga harakat qiladi. Shuningdek, bu mashq **tanqidiy va tahliliy fikrlashni** shakllantiradi, chunki o‘quvchilar har bir rasmning ma’nosini mustaqil ravishda izohlashga intiladi. Bundan tashqari, ushbu topshiriq o‘quvchilarning **nutq boyligini kengaytiradi**, chunki ular mavhum tushunchalarni ifodalash uchun yangi so‘z va iboralarni qo‘llashni o‘rganadilar. Ularning **ijodkorligi va mustaqil fikr bildirish qobiliyati** ham rivojlanadi. Natijada o‘quvchilar nafaqat metaforalarni tushunishni, balki ularni nutqda va yozma ishlarda to‘g‘ri qo‘llashni ham o‘rganadilar. Bu esa ularning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirib, lingvistik tafakkurini yanada boyitadi. Umuman olganda, kognitiv metafora inson tafakkurida mavhum tushunchalarni konkret obrazlar orqali anglashni ta’minlaydi va til hamda fikrlash o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Cho‘lpon she’riyatida qo‘llangan metaforik obrazlar esa ruhiy, ijtimoiy va ma’naviy mazmunni chuqur ifodalashga xizmat qiladi. Bu yondashuv badiiy matnni yanada chuqurroq tahlil qilish va o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Umuman olganda, kognitiv metafora inson tafakkurida mavhum tushunchalarni konkret obrazlar orqali anglashni ta’minlaydi va til hamda fikrlash o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Cho‘lpon she’riyatida qo‘llangan metaforik obrazlar esa ruhiy, ijtimoiy va ma’naviy mazmunni chuqur ifodalashga xizmat qiladi. Bu yondashuv badiiy matnni yanada chuqurroq tahlil qilish va o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lakoff J., Johnson M. (2004). Metaphors We Live By, 256-bet.
2. Маҳмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора/ Тил тилсими тадқиқи. –Тошкент, 2017. – Б. 117.
3. Xurshid Davron kutubxonasi. Cho‘lpon. Elektron manba: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/cholpon.html

Xudoyberganova D. O‘zbek tili metaforalarining antropotsentrik lug‘ati. — Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Hozirgi o‘zbek adabiy tili bo‘limi.